

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ZIGMUND FREYD  
(1856-1939)

Mening dunyom befarqlik  
ummonida suzib yuruvchi  
kichik og'riq oroli!

# 2022

## MAY

## №40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
15-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-15**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-15**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МУСИҚА ВА ҲАЁТ

|  |    |
|--|----|
| <b>1. Atamuratova Gulasal Ravshanbekovna, Begliyev Reymbergen</b><br>VENGRIYADA MUSIQA TA'LIMI TIZIMI .....                              | 7  |
| <b>2. Muratov Shuxrat Kamilovich</b><br>LAZGI – MILLIY QADRIYATIMIZ .....  | 9  |
| <b>3. Sultanova Farog'at</b><br>MUSIQIY TOVUSH VA UNING XUSUSIYATLARI .....  | 11 |
| <b>4. Teshayeva Elmira Erkinovna</b><br>MUSIQA DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH VA<br>FANLARARO BOG'LIQLIKNI TA'MINLASH ..... | 13 |



## МУСИҚА ВА ҲАЁТ

### VENGRIYADA MUSIQA TA'LIMI TIZIMI

**Atamuratova Gulasal Ravshanbekovna**

Xiva shaxar 11-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 360 30 55

atamuratova.gulasal\_1155@inbox.uz

**Begliyev Reymbergen**

Xorazm viloyati XTXQTMO

Hududiy markaz katta o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 457 18 20

begliyev.reymbergen55@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Vengriyada musiqa ta'limi tizimining o'ziga xos jihatlari haqida.

**Kalit so'zlar:** Musiqiy tarbiya, xor jamoasi, Koday metodi, Musiqa qo'shiqchiligi, guruhli kuylash.

Vengriyada musiqiy tarbiya sohasida erishilgan asosiy yutuqlar zamonaviy venger asoschilaridan biri, kompozitor, xalq og'zaki ijodi bilimdoni, musiqashunos, pedagog Zoltan Koday (1882-1967) nomi bilan bog'liqdir. Bolalarning musiqiy tarbiya sohasidagi o'zining faol va sarmahsul faoliyatini Zoltan Koday 1920-yillardan boshladi. Z.Kodayning bolalar musiqiy tarbiya tizimi ommaviylik tamoyiliga asoslangan.

Buyuk alloma xor jamoasida qo'shiq aytish hammaga ham mumkinligini alohida ta'kidlagan, keng ommani xor ijrochiligiga jalb etib, bu ishga alohida diqqat va e'tiborni talab qildi. Uning butun musiqiy ta'lim jarayoni xalq kuylariga asoslangan. Koday ommaviy venger maktabiga "Tonika-sol-fa" usulini kiritdi. Uning g'oyalari ikkinchi jahon urushidan so'ng ommalashib ketdi. Koday metodi - bu yaxlit tizim bo'lib: relyativ (nisbiy) solmizatsiya, kuylayotgan o'quvchilarga qo'l harakati yordamida beradigan ko'rsatmalar, venger xalq qo'shiqlari, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim maktablari, xor sinflari hamda guruhli kuylashdan iborat.

Unutmaslik kerakki, Koday metodi haqida gap ketganda so'nggi musiqiy tarbiya qonsepsiyasi haqida, uni hayotga tadbiiq etish yo'llari to'g'risida bormoqda. Bularni Z.Koday turli manbalardan olib, venger musiqasi xususiyatlariga moslashtirdi.

Guruhli kuylash Vengriyada, haqiqatdan, umumxalq jarayoni bo'lib, bunga musiqa savodxonligi, nota bo'yicha qo'shiq ayta olishga yordam beradi. Z.Kodayning "2000-yilga kelib, har bir umumta'lim maktabini bitirgan usmir notani erkin o'qiy oladi" - degan orzusi amalga oshmoqda.

Vengriyada musiqiy tarbiya yuqori darajadadir. Butun mamlakatdagi umumta'lim maktab tizimining asosi 8 yillik to'liqsiz o'rta maktab bo'lib, uni bitirgan o'quvchilar 4 sinfli gimnaziya o'tadilar. Birinchi sinfda bolalar haftada 2 marta 0,5 soatdan, 2-7-sinflarda esa haftada 2 soat "Musiqa" o'quv fani bilan shug'ullanadilar.

Bundan tashqari, har hafta ikki soat orkestr mashg'ulotlariga ajratilgan. Gimnaziyaning 3-4-sinflarida o'quvchilar musiqa adabiyoti bilan tanishish va birorta musiqa cholg'usini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umumta'lim maktablari orasida "Musiqa qo'shiqchiligi" to'liqsiz o'rta maktablari, ya'ni musiqani chuqur o'rganishga qaratilgan umumta'lim maktablari keng joriy etilgan. Ularda 1-4-sinf o'quvchilari haftada 6 soat, 5-7-sinflarda esa 4 soat musiqa va 2 soat xor mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar. Maktablarda, shuningdek, fortepiano, skripka, puflama musiqa cholg'ulari sinflari mavjud

Bunday maktablardagi sinflarda o'quvchilar soni umummaktab, sinfidagi bolalar soniga nisbatan kamroq, ya'ni 26 o'quvchidan ortmaydi. Bundan tashqari ularda umumta'lim yo'nalishdagi o'quv



fanlarining soni ham qisqartirilgan.

Boshlang'ich sinflarda barcha o'quv fanlaridan bilim berayotgan o'qituvchi musiqa darsini ham o'tadi. 5-8-sinflarda bu darslarni musiqa mutaxassisi olib boradi. Bolalarning musiqa savodini chiqarishda ustoz tomonidan qo'l harakatlari, maxsus imo-ishoralar qo'llaniladi.

Relyativ solminizatsiyani chuqur o'rgangandan so'ng, o'quvchilar mutlak tizimga o'tadilar. Musiqa ta'limini berish, shu jumladan musiqa o'quvini rivojlantirish uslubiyoti, asosan, bolalar ongining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan va ularga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Umumta'lim maktablarida fortepiano, fleyta, yogoch simbala va ayrim urma cholg'ulardan foydalaniladi. Koday tizimi, ayniqsa, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan va umumiy ta'lim maktablarida o'zining yorqin ifodasini topmoqda.

Har kungi musiqa darslari bolalarda usullarni ajrata bilish tajribasini, xotira, his-tuyg'ularni rivojlantiradi. 14-18-yoshdagi o'quvchilar ta'lim oladigan gimnaziyalarda musiqa tarixi fani o'rganiladi, barcha janr, uslub va davrdagi musiqa asarlari eshutiladi, shuningdek, sinfdan tashqari ishlaydigan xor va orkestr jamoalarida faoliyat ko'rsatadilar.

Vengriyada maxsus musiqa ta'limi beradigan gimnaziyalar ham mavjud. Bunday gimnaziyalar bitiruvchilari, aksariyat hollarda boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchilari bo'lib ishlaydilar. Shuningdek, Vengriyada bir nechta musiqa bilim yurtlari ham mavjud. Mazkur o'quv yurtlarida o'quvchilar umumta'lim fanlari bilan birga biror musiqa cholg'usini, solfedjio, garmoniya, guruhli kuylashni o'rganishadi. Gimnaziya bitiruvchilari o'qishni (ta'lim olish muddati 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan) Ferens List nomidagi Musiqa akademiyasida davom ettirishlari mumkin. 2 yillik kurslarda umumta'lim maktablari uchun solfedjio, qo'shiq, biror musiqa cholg'u ijrochiligi bo'yicha, mutaxassis o'qituvchi tayyorlanadi. 5 yillik ta'lim esa oliy malakali o'qituvchi va ijrochi artistlarni tayyorlaydi.

Bundan tashqari Vengriyada yuqori sinf musiqa o'qituvchilari tayyorlaydigan 4 yillik oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, bu yerda o'quvchilar muayyan musiqa ixtisosligi bilan birga ikkinchi mutaxassislik (masalan: musiqa va tarix, musiqa, til va boshqalar)ni egallaydilar

Z.Koday tizimi Vengriyadagi musiqa ta'limi va tarbiyasining barcha bosqichlarida joriy etilmokda. Vengriya musiqashunos pedagoglarining tajribasi dunyoning ko'pgina malakatlarida jumladan, O'zbekistonda ham musiqashunos va pedagogika mutaxassislari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

Z.Koday tizimi turli milliy madaniy an'analarga muqim ravishda moslashib bormoqda va shuning uchun u jahonning aksariyat mamlakatlarida keng miqyosda ommalashib ketdi.

Vengriyada butun xalq musiqiy savodini chiqarish vazifasi muvaffaqiyat bilan hal etilmoqda. Bunda, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim mamlakatlarida xor kuni o'tkaziladigan musiqa darslari katta ahamiyat kasb etmoqda.

Guruhli kuylash Vengriyada, chindan ham, umumxalq jarayonidir, bunga odamlarning musiqa savodxonligi, notaga qarab kuylash malakasi ta'sir ko'rsatmokda

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Вопросы методики музыкального воспитания детей. М.:«Музыка»,2005
2. Воспитание музыкой. Москва.: «Просвещение», 2011 г.
3. Кабелевский Д.В. Как рассказывать детям о музыке? М.:Просвещение, 2004.
4. Музыкальное воспитание в школе. Вып.19.:Сб.статей./Состав. О.Апраксина. М.: Музыка, 2007.
5. D. Soipova Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi T.UzDK 2009y.



## LAZGI – MILLIY QADRIYATIMIZ

**Muratov Shuxrat Kamilovich**

Xorazm viloyati Xiva Shahar

“NURLI MASKAN” Ixtisoslashtirilgan

maktab internati Musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm xalqining sho‘x kuy va raqsi “Lazgi” haqida, uning tarixi va bugungi kundagi o‘rni haqida malumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Lazgi, Xorazm, kuy, raqs, qadriyat, musiqa, millat, raqs, meros.

Har bir xalq o‘zining milliy urf-odat, an‘analari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Diyorimiz hududida turli shevada so‘zlashuvchi, o‘ziga xos marosim va qo‘shiqlariga ega bo‘lgan xalqlar bo‘lsada, ularni bari o‘zbek degan nom ostida jipslashadi. Har bir millatning dunyo xalqlari o‘rtasidagi mavqei tili, dini, qadriyat va an‘analari, eng asosiysi ularning milliy kuy va qo‘shiqlari bilan belgilanadi. Jahon musiqasi deb tan olinayotgan qo‘shiqlar ham ma‘lum bir millatning dunyodagi o‘rnini belgilovchi omil sanaldi. Uzoqqa bormaylik, o‘zbek xalqi qadimdan turli san‘at yo‘nalishlarida o‘zining dunyo sahnasidagi o‘rnini topib ulgurgan. San‘atning ko‘ngillarga iliqlik ulashuvchi musiqa turi bunga yorqin dalil. Bugungi kunda milliy ohanglar ostidagi navolar jozibadorligi bilan jaxon ahlini o‘ziga rom etmoqda. Odamzod yangi va turli saviyadagi qo‘shiq-ohanglardan ko‘ra, asrlar silsilasiga dosh berib, e‘zozlanib kelgan kuy va qo‘shiqlardan bahra olmoqda, kuylamoqda. Lekin baribir sohada hamon yangilik yaratishdan to‘xtamay kelmoqda, shu sababli turli cholg‘u asboblari, kuy turlari yaratilib, uning avloddan-avlodga o‘tishida ustoz-shogird an‘analari davom etib kelmoqda.

Musiqa va san‘at sohasida yurtimiz o‘zining ko‘p yillik tarixiga ega Xorazm diyorini misol qil-sak bo‘ladi. Xorazm nomini eshitishimiz hamon ko‘z o‘ngimizga jozibali “Xorazm raqs” turi ke-ladi. Ushbu raqs turini eshitmagan yoki raqs tushmagan inson bo‘lmasa kerak. Agar shu xalqning so‘zlashuv tiliga ham e‘tibor bersangiz, u shirinzaibonligi va oxangdorligi bilan boshqa shevalar-imizdan ajralib turadi. Ushbu shirali so‘zlardan yaratilgan har qanday kuy-tarona ko‘ngillarga ajib bir tarovat baxsh etishi shubhasiz. Ushbu raqs turi haqida turli qarashlar, ma‘lumotlar bayon qilingan va hikoyalar keltirilgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Xorazmning mashhur lazgi raqsi Olloh Odam Atoga jon baxshida etayotganda tarannum etilgan bo‘lishi mumkin ekan. Balki, shu sabab insonlar shu kuy taraliboq beixtiyor raqsga tushib ketishadi. Musiqa san‘atiga e‘tibor tarixda ham yuksak darajada bo‘lgan. Manbalarda keltirilishicha, Xiva xoni Feruz 1882-yil maxsus “Farmoni Oliy”da: “Xorazm maqomlari xalqning daxlsiz mulki deb e‘lon qilinsin. ...maqomlarni kamsitgan, yoinki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin!” deganining o‘zi o‘tmishda ham musiqaga hurmat va uning o‘rni asosiy o‘rinda ekanligidan dalolat.

“Lazgi” so‘zi “Xorazm xalqining sho‘x kuy va raqsi”, shuningdek, “ansambl” degan ma‘nolari mavjud. Bu raqs turi shakl jihatdan muqaddima va 3 qismdan iborat bo‘lib, 6/8 o‘lchovdagi gul ifori usulida ijro etiladi. Lazgi harakatlarga juda boy bo‘lib, dastlab juda oddiy harakatlar bilan boshlanadi yani bunda tananing barmoq qismidan boshlanib, yelka va keyin butun tana jonlanadi. So‘ngra birdaniga qo‘l, oyoq, tana ishtirok etadigan murakkab harakatlar boshlanadi. Kuy tobora tezlashgan sari harakatlar ham jadallashib borib, keskin holda tugaydi. Raqsni tomoshabin sifatida kuzatsangiz, uning betakror jozibasini erkaklar jangovar va qahramonona ruhda, ayollar hazilo-muz va lirik ruhda ijro etishlari orqali ochib berishlarining guvohi bo‘lishingiz tabiiy.

Ushbu Xorazm milliy raqs turiga aylangan lazgining 9 ta turi mavjud. Shulardan “Qayroq laz-gi”, “Dutor lazgi”, “Surnay lazgi” kabi turlari eng ko‘p ijro etiladi. Ushbu raqs turi xalq tomonidan yaratilgan san‘at turi. Hozirgi kunga kelib turli xonandalar tomonidan turli xil ko‘rinishdagi lazgi qo‘shiqlari ijro etilmoqda. Misol tariqasida “Kimni sevar yorisan” (K.Otaniyozov), “Sani o‘zing bir yona” (O.Hayitova), “Xorazmning lazgisi” (O.Otajanov) kabilari keltirish mumkin.

“Lazgi” raqs turini yanada rivojlantirish va sayqal berish maqsadida “O‘zbekraqs” qoshida-gi Komiljon Otaniyozov nomidagi “Lazgi” ashula va raqs ansambli O‘zbek davlat filarmoniyasi qoshida 1957-yilda tashkil etilgan. Ushbu ansamblni tashkil etilishida xorazmlik buyuk san‘atkor Komiljon Otaniyozovning nomlarini eslamaslik mumkin emas, uning tengsiz ovoz sohibi bo‘lgani barchani hayratga solgan. Ba‘zilar shubxa uyg‘otgan, masalan, Hindistonga safarlari chog‘ida ularning og‘zini ochib, tekshirib ko‘rishni so‘rashgan. Go‘yo u og‘ziga mikrofon joylashtirib ol-



gan deya o‘ylashgan. Mana shu inson o‘zidan ulkan ijodiy meros qoldirib, raqs maktabini yaratib ketdi.

Hozirgi kunda “Xorazm lazgisi” raqsini jahon nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritish borasida “Oltin meros” va Xorazm Ma‘mun akademiyasi tomonidan ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, 2019-yil 29-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan chiqarilgan qarorning 11 bandida O‘zbekiston Madaniyat Vazirligi, Vazirlar Maxkamasi huzuridagi YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy komissiyasi va Tashqi ishlar vazirligiga Xorazm lazgisini «Xorazm raqsi Lazgi» nomi ostida YUNESKOning insoniyat nomoddiy merosi ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha topshiriqlar berilgan. Natijada “Lazgi” O‘zbekiston madaniy merosining elementi sifatida insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprerentativ ro‘yxatiga kiritilgan. Bu haqdagi qaror 2019-yil 12-dekabr kuni YUNESKO Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasi sessiyasida qabul qilingan edi.

2020-yil 29-sentabrda 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marotaba “Lazgi” xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida prezident qaror e‘lon qilindi. Shu sababli bu yil 25-30-aprel kunlari Xiva shahrida YUNESKO, Turizm va madaniy meros vazirligi, Madaniyat vazirligi, Xorazm viloyati hokimligi hamkorligida «Lazgi» xalqaro raqs festivali o‘tkazildi. Unda 30 dan ortiq davlatdan mehmonlar, raqs ansambllari ishtirok etdi. “Lazgi” raqsiga e‘tiborning kattaligini mana shu tashkil qilinayotgan tadbir va festivallardan ham bilish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi hukumati qaror va farmonlari.
2. [www.mamun.uz](http://www.mamun.uz)
3. OAV va Internet materiallari.



## MUSIQIY TOVUSH VA UNING XUSUSIYATLARI

**Sultanova Farogʻat**

Xorazm viloyati Hazoras p tumani  
28-son umumiy oʻrta taʼlim maktabining  
musiqa madaniyati fani oʻqituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqiy tovushlar, tovushlarning balandlik, qattqlik, tembr va choʻzim kabi xususiyatlari haqida maʼlumot berilgan.

**Kalit soʻzlar:** musiqa, xususiyat, shovqin, tovush, ovoz, balandlik, qattqlik, tembr, choʻzim, tenor, tembr, baland, past.

Biz yashayotgan olam turli tovushlarga toʻladir. Misol uchun: guvillagan, taqillagan, shitirlagan, gʻichirlagan va boshqa shunga oʻxshash tovushlarning barchasi real voqelikdagi tovushlardir. Bularni *shovqinli tovushlar* deb atashadi. Kuylayotgan qoʻshiqchining ovozi va musiqa asboblari – rubob, nay, chang, skripka, fortepyano, goboy, truba va boshqa cholgʻu asboblardan taraladigan tovushlar *musiqiy tovushlar* deb nom oldi.

Barcha tovushlar baland va past yoki uzoq va qisqa vaqt yangrashi, shu bilan birga oʻziga yara sha rang-barangligi bilan farqlanadi. Shovqinli tovush bilan musiqiy tovushlar oʻrtasidagi farq shundaki, har bir musiqiy tovush aniq belgilangan balandlikka ega boʻladi. Shovqinli tovushlar esa bunday xususiyatga ega emas. Musiqaning asosiy vositasi, yaʼni ifodalilik vositasi – musiqiy tovushlardir. Lekin zamonaviy musiqada shovqinli tovushlar ham keng qoʻllaniladi.

Musiqiy tovush, I.Sposobin fikricha, oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, musiqiy madaniyatning asrlar davomidagi rivojlanish jarayonida ishlab chiqilgan muayyan tovushlar tizimining bir parchasidir.

Tovushlar tizimi musiqiy fikrni ifodalash va badiiy obrazlarni gavdalan tirish uchun xizmat qiladi. Har bir musiqiy tovushning xarakteri toʻrtta asosiy xususiyatlar bilan aniqlanadi. Ular *balandlik, qattqlik, tembr va choʻzim*.

Tovushning *balandligi* tebranayotgan jismning *tebranish tezligiga* bogʻliq. Tebranish qanchalik tez boʻlsa, tovush shunchalik baland eshutiladi, va aksincha. Demak, tovushlar balandligi boʻyicha baland, oʻrta va past tovushlarga ajratiladi. Baland tovushlar «nafis», «muloyim», «jarangli», «biller» kabi soʻzlar bilan taʼriflanishi mumkin. Vatandoshimiz mashhur ayol opera ijrochisi Muyassar Razzoqova va dunyoga mashhur ayol opera ijrochisi italiyalik Monserrat Kabalye baland ovoz egalari. Xorazmdagi soprano ovozi partiyasi asosan oʻz ichiga baland tovushlarni qamrab oladi. Skripka, fleyta, nay cholgʻular ham baland tovushlarni taratadi.

Past tovushlar – «yoʻgʻon», «qoʻpolroq» «chuqur», «mayin» kabi soʻzlar bilan koʻproq taʼriflanadi. Atoqli maqom ijrochisi Munajat Yoʻlchiyeva past ovozn ing sohibasi. Dunyoga mashhur boʻlgan rus opera ijrochisi Fyodor Shalyapin ham erkaklar ovozlaridan eng past, yaʼni bas ovozda kuylardi. Musiqa asboblardan truba, kontrobas, fagot kabilar past tovushlarga ega.

Oʻrta tovushlar xor ovozlari alt bilan tenor, cholgʻulardan violonchel, klarnet, valtorna, rubob, dutorga xarakterlidir. Ularga nisbatan «yumshoq», «qalin», «odam ovoziday» soʻzlarni qoʻllash mumkin. Tenor ovozi egalari – yurtdoshimiz mashhur opera ijrochisi Ismoil Jalilov, jahondagi eng atoqli «tenor»lar – Plachido Domingo, Xose Karreras, Luchchano Pavarotti, Andrea Bachelli kabi xonandalardir.

Tovushning *qattqligi* jismning *tebranish kengligi* (amplitudasi) dan kelib chiqadi. Tebranish kengligi qancha keng boʻlsa, tovush shunchalik qattiq eshutiladi, va aksincha. Qattqlikning darajasi (jaranglash kuchi) *dinamika* soʻz bilan ataladi.

Tovushning *choʻzimi* jismning tebranishi davom etishiga bogʻliqdir. Real vaqt soniya, daqiqa, soat va hokazolar bilan oʻlchanadi. Musiqadagi vaqt muayyan tovush choʻzimi bilan oʻlchanadi. Musiqada har bir tovush oʻz choʻzimi boʻyicha undan oldingi va keyingi tovushlar bilan muayyan darajada aniq uyushtiriladi, vaqt bilan belgilanadigan munosabatga kirishadi. Mana shundan kelib chiqib, musiqaga xos boʻlgan aniq uyushtirilgan vaqtga bogʻliq tuzilish (struktura) vujudga keladi.

Tovushning *tembri* deb uning *rang-barangligiga* aytiladi. Gap shundaki, har qanday tovush, ayniqsa musiqiy tovush, murakkab tarkibga ega. Tovush manbai (jism) butunligicha tebranib, asosiy tebranish tezligini, yaʼni eng yaxshi eshutiladigan past balandlikdagi tovushni hosil qiladi. Bu tovushga asosiy ton deb aytiladi. Biroq, shu bilan bir vaqtning oʻzida jismning umumiy



uzunligidan teng yarmi, uch qismdan bir, to‘rt dan bir, beshdan bir va h.k. qismlari ham tebranadi. Har bir qismning tebranish tezligi o‘ziga mos tovushni yaratadi. Bunday ikkinchi, uchinchi darajali tovushlarning balandligi asosiy tovushdan ko‘ra ikki, uch marta balandroq eshitiladi. Chunki, jismning uzunligi qancha qisqa bo‘lsa, shunchalik uning tebranish tezligi oshadi va hosil bo‘lgan tovushning balandligi yuqorilashadi. Ushbu qo‘shimcha, tarkibiy tonlar *oberton* yoki *garmoniklar* deb ataladi. Asosiy ton jarangida obertonlarning qattiqlik bo‘yicha o‘zaro nisbati, ularning bor yoki yo‘qligi tovushning individual sifatini, boshqa tovushlarga o‘xshamasligini ta’kidlaydi. Masalan: qo‘ng‘iroqchani ko‘rmay turib, uning jarangini shaqildoq jarangidan ajrata olamiz yoki onajonimizning ovoz tembri ko‘p ovozlar ichida bizga «o‘zgacha» bo‘lib eshitiladi.

Mazkur to‘rtta sifat har bir tovushda, shuningdek, musiqiy fikr va obrazlar ifodalaydigan qator tovushlar birikmasida albatta namoyon bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ibraximjanova G.A. Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya T., 2017
2. Vaxromeev V.A. Musiqaning elementar nazariyasi. T., 1980
3. Raximov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. Ma’lumotnoma. T., 2007.
4. Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. Maxsus muharrir T.B. G‘ofurbekov. T., 1997



## MUSIQA DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH VA FANLARARO BOG'LIQLIKNI TA'MINLASH

**Teshayeva Elmira Erkinovna**  
Zarafshon shahar 4-maktab  
musiqa fani o'qituvchisi


**Annotatsiya:** Ushbu tavsiyada musiqa darslarida innovatsion usullardan foydalanish haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, modellashtirish, kompoziter, musiqa, mashqlar...

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim sohasini tubdan isloh qilishga juda katta e'tibor qaratildi. Shu yo'lda ko'plab qonunlar, qarorlar, nizom va dasturlar hayotga tadbiiq etildi. Maktab ishi uchun eng muhim hujjatlardan biri bo'lgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning milliy modelidagi bosh muddao – bu komil inson tarbiyasi, mustaqil fikrlovchi ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir. Shu bois biz pedagoglar katta mas'uliyatni sezgan holda o'z ishimizga jiddiy yondashmog'imiz lozim. Bu borada maktabda musiqa darslarini tashkil etishda innovatsion usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

### Innovatsion usul turlari

Innovatsiya-lotincha so'z bo'lib, **yangilikni kiritaman, tadbiiq etaman, o'zgartiraman** degan ma'nolarni bildiradi.



### 1.Modellashtirish:

#### (Trenarovka-mashq qilish);

O'qitishning bu usuli o'z ichiga real hayotni qayta tiklash uchun ishlab chiqilgan moslama, asbob yoki vaziyatni o'z ichiga oladi.

#### Qo'llanilishi:

-Turli vaziyatlarda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni qo'llashda

-Ilgari o'rnatilgan prinsiplari real hayotiy vaziyatlarda qo'llashda;

#### Afzalligi:

-O'quvchilar faolligi va jalb qilinishini mustahkamlaydi;

-eslab qolishni kuchaytiradi.

### 2.Namoyish qilish.

Demonstratsiya –«ko'rsataman, isbotlayman»degan ma'noni anglatadi.

Bu o'qitish usulida o'qituvchi topshiriqni bajarib, o'quvchilarga bu topshiriqni qanday bajarish kerakligini ko'rsatadi. Bu o'qitish usulidan so'ng, o'quvchilarga topshiriqni bajarib ko'rish imkonini berish kerak.

#### Qo'llanilishi:

-topshiriqni qanday bajarishni ko'rsatish uchun;

-muommolarni hal qilish va analitik mohirlikka o'rgatishda;

**1. “ENG YAXSHI MUXBIR” METODI**

Bu metoddan asosan darsning tashkiliy qismida foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. o'quvchilar media axborot orqali eshitgan yangiliklarini to'plab darsning kirish qismida aytib beradilar. o'qituvchi kimning axboroti serqirra va qiziqarli bo'lsa o'sha o'quvchi “eng yaxshi muxbir” nominatsiyasini oladi. Bu belgi har bir darsda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.








**“Biz kompozitor bo‘lamiz” usuli. Bu usul quyidagicha tashkil etiladi.**

“Kuz musiqasi” mavzusini o‘tishda o‘quvchilarga kuz fasli haqida o‘zlari ma’lumot topib keladilar va shu faslga mos kuy chiqarib keladilar.




Bu usulda musiqa fani tabiatshunoslik, goeografiya fanlari bilan bog‘lanadi.

Oltin kuz haqida gapirib beradi va uni o‘zining fikri va so‘zlari bilan ifodalaydi. Shundan so‘ng, kuzdagi tabiat ko‘rinishi, ob-havosi tasvirlanadi.



“Aql charxi” texnologiyasi fikriy bog‘liqlik, xotira, mantiqni shakllantirish uchun qo‘llanadi. Bunda 2 guruhga savollar tarqatiladi



Ta’lim uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, uning sifati darsda qo‘llanilgan metodlarga bog‘liq. Darsning mazmunli o‘tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o‘qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to‘g‘ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib



chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o'qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o'tishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi doimo o'z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo'lishi va o'z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Golish L.V., Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T.,
2. “Umumta'lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018-yil

# ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 15-ҚИСМ

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000